

EKOTURIZMNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI BOSQICHLARI

Xudaybergenov N.S.,

Ganiev N.J.,

Esenova I.M.

Qoraqalpoq davlat universiteti,

O'zbekiston

Аннотация: В статье рассматриваются происхождение термина "экологический туризм" или "экотуризм," история развития экологического туризма, деятельность ученых, изучавших развитие экотуризма в мировом масштабе, этапы формирования экотуризма, ученые, занимавшиеся классификацией экотуризма, а также современное состояние и перспективы экотуризма.

Ключевые слова: экотуризм, экотуристический объект, экотуристическая местность, ландшафт, международный экотуризм.

Abstract: This article explores the origin of the term "ecological tourism" or "ecotourism," the historical development of ecotourism, the work of scholars who have studied the global growth of ecotourism, the stages of ecotourism's formation, researchers involved in classifying ecotourism, and the current and future state of ecotourism.

Keywords: ecotourism, ecotouristic site, ecotourism destination, landscape, international ecotourism.

Jahonda ekologik turizm yoki ekoturizm atamasining kelib chiqishi XX asrning oxiri insoniyat va jamiyat oldida global ekologik muammolar kuchayib ketganligi isbotlandi. Bu davrda insoniyatning tabiiy atrof-muhitga, tabiiy resurslarga salbiy ta'siri kuchayganligi natijasida ekologik inqiroz sayyora atrofida insoniyatning kelajakda yashab qolishini qiyinlashtiradi va xalqaro miqyosda kun tartibiga qo'yadi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib AQSH, Kanada va Yevropa mamlakatlarida umumiy hayotning keskin rivojlanishi va nafaqat tabiiy resurslar inqirozini kuchaytirdi, balki ijtimoiy-madaniy resurslarning butkul saqlanishiga ham tahdid sola boshladi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida, ko'proq Germaniyaning rivojlangan Rur havzasida tabiiy muhitning keskin buzilishi inson va organizmlar hayoti uchun xavf paydo bo'lishi sababi tabiat va jamiyat o'rtasidagi ekologik munosabat turini yuzaga keltirdi. Nemis olimi Ernest Gekkel 1866-yilda ekologiya haqida birinchi bo'lib fikr va takliflar bildirgan edi.

Turizmning ekologik yo'nalishi XX asrning 70-yillarida boshlangan. 1972-yilda Skandinaviya mamlakatlari fuqarolari uchun kitlarni tomosha qilish va ularni o'rganish maqsadida turistik marshrutlar tashkil etilgan. Ushbu turizmdan tushadigan mablag'lar kitlarni muhofaza qilish uchun ishlatilgan va ekoturistik marshrut sifatida tilga olingan. Amerika mintaqasida esa tabiat qo'yniga sayohat qilish tabiatshunos yozuvchilar M. Lyusek, B. Klark, D. Odyubonlarning tabiat go'zalliklari haqida adabiy asarlari hamda ilmiy ekspeditsiyalari orqali rivojlandi. MDH mamlakatlari ichida Rossiyada XIX asrning ikkinchi yarmida N.Prjevalskiy, P.Semenov-Tyan-

Shanskiy, D.Mamin-Sibiryak kabi sayyohlar tabiat qo‘yniga insonlarni jalb qilish katta rol o‘ynaydigan va o‘sha davrda ko‘plab shaharlarda o‘z shoxobchalariga ega bo‘lgan —Tabiat ixlosmandlari jamiyati, Qrim tog‘ klubi, Kavkaz tog‘ jamiyati kabi tashkilotlar paydo bo‘lib, mamlakatda tog‘ turizmi, ekskursiya faoliyati rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Umuman olganda, ekoturizm obyektiga tabiiy komplekslar, tabiat yodgorliklari, muhofaza qilinadigan, madaniylashtirilgan buzilgan geotizimlarni kiritish lozim. Ekoturistik obyekt bo‘lishi uchun ushbu hududlar tabiiy kelib chiqqan yoki ular antropogen ta’sir tomonidan o‘zgartirilgan bo‘lib hamda insonlarning sayyohlik imkoniyatlarini qondirish kerak. Aks xolda tabiat komplekslari yoki obyektlari ekoturizm obyektiga bo‘la olmaydi. Ekoturizmning predmeti - ekologik xarakterdagi sayohat qilish (turizm). Bu turizm subyektlarini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, buzilgan tabiat tizimlari majmualarini qayta tiklash, tabiat komponentlaridan oqilona samarali foydalanishga yo‘naltirishdir. Turizmni uning obyektiga, ulardan foydalanish usullari, turistlarning yoshi, kasbi, qiziqishi, salomatligi, marshrutlarining uzoq yoki yaqinligi, vazni moddiy bahosiga qarab turlicha tasniflashgan.

Zamonaviy turizmni tasniflashda S.R.Yerdavletov (2000), 1.bo‘sh vaqtning mavjudligi, uzoq masofali, sayyohlarning yoshi, jinsi, salomatligi, ma’naviy-madaniy rivojlanganligi, shaxsiy xohishi moddiy ta’minlanganligi 2.tabiiy sharoitning xilma-xilligi, mavsumiyliigi 3.harakat vositalari mavjudligi kabi omillarga e’tibor qaratgan holda turizmning maqsadi, sharoiti va hajmiga qarab ularni shakl, sinf, tug‘ruq birliklariga ajratgan. Tashkil etilgan turizm rivojlana boshlagach, tabiat qo‘yniga sayohat qilish uning ilk yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

O‘tgan asrning o‘rtalarida Tomas Kuk Shotlandiya tog‘lariga sayohatlarni tashkil etdi sayohatlar ingliz yozuvchisi romantik asarlarida yovvoyi tabiati, adirlar, tog‘larni tasvirlashi ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Yevropaning boshqa mamlakatlari, Uzoq Sharq Shimoliy Amerika mamlakatlarida ham tashkil etila boshlandi. Ekoturizmning mintaqaviy tarkibida turizm industriyasi sifatida rivojlangan davr - 1990-2000-yillarni o‘z ichiga oladi. Ekoturizm xalqaro, mintaqaviy va milliy tarkibda rasmiy maqomga ega bo‘lishi bilan birga Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida eng zarur voqea 1992-yil 3 - 14-iyun kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) —Atrof-muhitni muhofaza qilish va taraqqiyotga doir konferensiyasida qabul qilingan. Umuman olganda, XX asrning 90-yillariga kelib Yevropaning bir qator mamlakatlarida "Ekoturizm" atamasi tez-tez qo‘llanila boshlandi. I.B.Zorin va V.A.Kvartalnovlarning ekoturizm atamasining bir nechitasi jamlandi. Rossiyada 1996-yilda Xalqaro yovvoyi tabiat fondi (WWF) Uzoq Sharqda tashkil topishi bilan uzviy bog‘liq. WWF dasturining bir qismi alohida muhofaza qilinadigan hududlarni ta’minlashi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda 1996-yildan boshlab Jozip Mak-Nalti boshchiligidagi xalqaro ekspertlar guruhi "O‘zbekiston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish dasturi" bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi.

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

XXI asr - global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri 2001-yilda Rossiyada ekologik turizm assotsiatsiyasi tashkil etildi. 2002-yil BMTning atrof-muhit yo'nalishi (YUNEP) va Xalqaro sayyohlik tashkiloti (BMT) tavsiyasi bilan "Xalqaro ekoturizm yili" deb e'lon qilindi. Kanada sayyohlik komissiyasi va Kvebek shahrining sayyohlik boshqarmasi Xalqaro ekoturizm Sammiti 2002-yil 19-22-may kunlari tashkil etildi. Unda 132 ta davlatlar va xususiy sektordan mingdan ziyod vakillar ishtirok etib, ushbu Sammitga tegishli sohada bir necha yildan buyon olib borilgan mashaqqatli tayyorgarlik bosqichlarining yakuni bo'ldi. Kvebek Sammiti ekoturizmning global miqyosda namoyon bo'luvchi va yangi yo'nalishni tubdan yangi usulda boshlash nuqtasi bo'ldi. 2002-yil avgust-sentyabr oylarida o'tkazilgan

Xalqaro barqaror rivojlanish sammitidagi tegishli turizm yo'nalishidagi asosiy taktik va strategik vazifalarni yaqin o'n yillikkacha aniqlab berdi.

➤ ekoturizm faqat iqtisodiy almashinuv, balki mahalliy xalqlarning huquqlarini kafolatlashga hamda ekoturizmning kuzatuv rejasini yo'lga qo'yish bilan boshqa turistik tizimlardan ajralib turadi.

➤ Ekoturizm - rivojlangan mamlakatlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi milliyligini anglash, ekotizimlar himoyasini amalga oshirish va barqarorlik tamoyillariga amal qilishga undaydi.

➤ ekologik turizm ishtirokchilariga tegishli ekologik ma'lumotlarni yetkazish turistik markazlar, tur operatorlari, jurnalistlar va ushbu jarayonda ishtirok etayotgan shaxslarga bog'liq.

➤ ekoturizm jarayonida ishtirok etayotgan iste'molchilar va uning ta'minotchilari hamda irqiy, jinsiy yoki boshqa turdagi kamchiliklarga yo'l qo'yimaslik zarur.

➤ ekoturizmning shakli yoki o'tkazish modelining hamda faoliyat turini tanlash orqali ular kelib turgan tur markazlari hamda atrof-muhitni barqaror ta'minlashga mas'uldir.

Ekoturizm yo'nalishining rivojlanishi, albatta, o'rganilayotgan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitigagina bog'liq bo'lmay, balki hududning tabiiy sharoitiga, bu yerdagi ekoturistik maskanlarning mavjudligiga hamda ularning geografik joylashuviga ham chambarchas bog'liq. Ekoturistik imkoniyatlarni uning qaysi turini rivojlantirishni aniqlashda tabiiy sharoit xususiyatlari bosh rol ni o'ynaydi. Landshaftlarning ekoturistik imkoniyatlarini o'rganishning asosiy mohiyati dam oluvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning ekoturizm uchun yaroqli yoki yaroqsizligini, qulay yoki noqulayligini aniqlashdan hamda ushbu o'rganilayotgan majmuaning ekoturistik obyektlarga egaligi, ularning ko'rinishi (vizualligi) jozibadorligini aniqlashdan iborat. Landshaftlarni ekoturizm nuqtai nazaridan baholashda ularning turistik imkoniyatlarini aniqlaydigan barcha xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Bunday xususiyatlar landshaftning quyidagi sharoitlari asosida shakllanadi. Ko'pgina landshaftshunos olimlarning tadqiqotlari tahlili asosida

bizning fikrimizcha ularga litologo-geomorfologik (asosan relyef), iqlim, yerosti suv rejimi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ekoturizm bugungi kunda kompleks, fanlararo yo'nalish bo'lib, turizm tabiat va madaniyatni muhofaza qila olishining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Demak, qisqacha qilib aytganda, tabiiy komponentlarning birligi aniq joyning tabiiy sharoitini shakllantirib, uning ekoturizm uchun yaroqliligini, shuningdek, qulaylik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kerimbergenovich A. A. et al. Ecotourism development in the Republic of Karakalpakstan: historical places and protected areas //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 12. – С. 1258-1262.
2. Салаев С. К. и др. Пути развития экологического туризма на охраняемых природных территориях //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 12. – С. 228-234.
3. Allanazarov K. J., Abdullayev T. J. JANUBIY OROLBO'YI MINTAQASIDAGI HAVO HARORATI VA ATMOSFERA YOG'INLARINING O'ZGARISHINI MIQDORIY BAHOLASH //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 24-31.
4. Алланазаров К. Ж., Ходжаев С. С., Кошкинбаева М. Т. ЛАНДШАФТНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБВОДНЕНИЯ ТУГАЙНЫХ КОМПЛЕКСОВ НИЗОВЬЕВ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 852-857.
5. Allanazarov K., Khodjaeva G., Shields K. IMPLICATIONS OF THE LINKS BETWEEN DEMOGRAPHY AND ECOLOGY FOR THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Karakalpak Scientific Journal. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 30-40.
6. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Abdullaev Tozabek Jumabay O'g'li, Ganiev Nurman Janabergenovich, Khudaybergenov Nurlan Saparbay O'g'li, & Amangeldieva Umida Joldasbayevna. (2022). ASSESSMENT OF HAZARDOUS HYDROMETEOROLOGICAL PHENOMENA AFFECTING AGRICULTURAL CROPS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 125–131. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/149>
7. Qaldibaevich, I. A. ., O'g'li, A. T. J. ., Janabergenovich, G. N. ., & O'g'li, K. N. S. . (2023). Assessment of Dangerous Hydrometeorological Events Affecting Agricultural Crops with a Modern Program . International Journal of Biological Engineering and Agriculture, 2(2), 12–17. <https://doi.org/10.51699/ijbea.v2i2.1076>
8. Далжанов К.О., Утарбаева К.А. Қорақалпоғистонда дехқончиликни ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари // Ўзбекистон география жамияти. №53. - 2018. – Б. 111-113.
9. Eshimbetov U. et al. Territorial composition of agriculture in the Aral Sea Region of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01040.
10. Турсунов М. Далжанов К.О. Қорақалпоғистонда дехқончиликни ривожлантиришнинг айрим масалалари. Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья. Материалы VII Республиканской научно-практической конференции. – Нукус. – 2017. – С. 172-173.
11. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Bazarbaev Nursultan Azatbay Ogli, Omonboyev Shohzod Davronbek O'g'li, & Berdimuratova Aysara. (2023). Dangerous Hydrometeorological Phenomena Observed in Lower Amudarya Region. Texas Journal of

«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В БАССЕЙНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

Agriculture and Biological Sciences, 23, 49–53. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjabs/article/view/4854>

12. Esenova I. M. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISHNING AHAMIYATI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 358-360.